

TALABALARNING IJTIMOYIY MOSLASHUVCHANLIGIDA IRODAVIY SIFATLARNING AHAMIYATI

M. Mirqosimova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori

S. Sobirova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistr

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'limda o'z faoliyatini boshlagan talabalarning ijtimoiy moslashuvida irodaviy sifatlarning ahamiyati ochib berilgan. Oliy ta'lim jarayoniga tayyorlik, o'quv faoliyatini boshqarish,, o'quv materiallarini o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish kabilarda talabalardagi mas'uliyat, irodaviy sifatlarning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etishi, bu boradagi qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy moslashuv, irodaviy sifatlar, o'quv faoliyatini boshqarish,, o'quv materiallarini o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish, mas'uliyat, qat'iyat, izlanish, qiyinchiliklar, omillar.

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort, (noqulay, nohush) tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir. Odatda quyi kurs talabari o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur etishga harakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ko'pincha ular o'quv faoliyatini boshqarish deganda o'quv materiallarini o'zlashtirilishini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash kabilarni tushunadilar. Talabalarda o'quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari uni boshqarishning ayrim imkoniyatlari yuzasidan muayyan bilimlar ham bo'lishi shart. Shaxsiy faoliyatni boshqarish deganda ular o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini ko'p marta takrorlash jarayonini tushunadilar, uning bosh maqsadi matnning mohiyatini aniq anglashdan iborat deb biladilar.

Talabalarda uchraydigan muammolar 3 guruhga bo'linadi:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatdan keskin farqlanishi, o'qitishning turli shakl va usullarining murakkabligi, ular uchun



material olish manbalari xilma–xilligi, mustaqil bilim olish malakalari yetishmasligi va boshqalar.

2. Ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklar: atrof muhit va hayot sharoitining o‘zgarishi; hayot va faoliyatning barcha jabhalarida mustaqillikka o‘tilishi, irodaviy zo‘r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo‘yicha qat‘iyatsizlik, masalan, sessiyalarda, o‘qishdan haydalanishdan cho‘chish, qo‘rqish, xavfsirashning paydo bo‘lishi.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: Oliy maktab shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto‘g‘ri tasavvur qilish, mutaxassislik – ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik.

Oliy maktab muhitiga moslashishda talabalarning o‘ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imqoniyatlari, aql-zakovati, axloqiy fazilatlarini ma‘lum darajada rol o‘ynaydi. Qiyinchilikning asosiy sabablari talabalar o‘quv faoliyatining to‘g‘ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo‘lib, bular aqliy zo‘riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo‘riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o‘quv faoliyatini oqilona boshqarish tajribasi yo‘qligi, ta‘lim-tarbiya jarayoni shrt-sharoitlari va talabalarini o‘zlashtirishdagi zaifligi yotadi. Oliy o‘quv yurti talabalarini ko‘pincha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga xarakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma‘ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo‘r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O‘quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi imtixon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko‘ra, oliy o‘quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o‘quv materialining asosiy manbalari bilan ishlashga o‘rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o‘zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Talabalarning irodaviy faoliyati nafaqat faoliyat motivlariga, mavjud vaziyatga va sharoitga, balki irodaviy harakat bosqichiga (maqsadni belgilash, rejalashtirish, amalga oshirish) qarab turlicha ifodalanadi. Buni, masalan, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazishda tajriba yo‘li bilan tekshirish mumkin. Talabalar uchun bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan uchta darsdan tashqari mashg‘ulotlar tanlab olinadi. Birinchi tadbirni o‘tkazishda har bir talaba uchun maqsad qo‘yiladi va reja beriladi, ikkinchi tadbir oldidan faqat maqsad qo‘yiladi, uchinchi – talabalar to‘liq mustaqil ravishda amalga oshiradilar (maqsad qo‘ying, rejalashtiring va bajaring). Tajribaning har bir seriyasida (har bir tadbir davomida) talabaning ixtiyoriy



faolligini baholashda quyidagilar hisobga olinadi: talaba qancha takliflar kiritgan, ularni amalga oshirishda u qanday ishtirok etgan, boshqalarning asosli takliflarini qanday qo'llab-quvvatlagan, tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida safdoshlariga qanday amaliy yordam ko'rsatdi. Bu usulni taniqli pedagog va psixolog A. I. Vigotskiy yuqori sinf o'quvchilarining tashabbuskorligini o'rganishda qo'llagan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davlatning ijtimoiy muammolari, ularning fuqarolar ijtimoiy farovonligi dinamikasi o'zgargan vaqtda namoyon bo'ladi. Bugungi kunga qadar, shubhasiz, odamlarning innovatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarning samaradorligi, aholining turli qatlamlari va guruhlarining ijtimoiy ongi va psixo-emotsional holatidagi sifat o'zgarishiga bog'liqligi aniq. Talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish, ularning kelajakdagi ixtisosligini va undan keyingi o'zini ro'yobga chiqarish istagi, shuningdek, real faoliyat sohasini amalga oshirish, asosan kelajakdagi mutaxassislarni malaka oshirish sifatiga, jamiyat farovonligiga ta'sir qiladi.

Universitetda o'qishning boshlanishini talabalar hayotidagi yangi bosqichning boshlanishi bilan taqqoslash mumkin. Ushbu davrning asosiy burilishlari o'z-o'zini bilish va o'ziga ishonchga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida mustaqil hayot dinamikasiga umumiy nuqtai nazarini shakllantiradi.

Ko'p sonli talabalar, odatda, universitet hayotida yuz beradigan qiyinchiliklarga tayyor bo'lmaydi, bu esa ba'zi muammolarning kelib chiqishiga olib keladi. Ushbu vaziyat natijasida talabalar yangi hayotga moslashish uchun qo'shimcha vaqt sarflashadi. Biroq, bu faktlarning barchasi talabalar duch kelishi kerak bo'lgan haqiqat bo'lganligi sababli, oldindan tegishli tayyorgarlik ko'rilsa, ustunlikka erishish mumkin. Mutaxassislar va tadqiqotchilar hozirda amerikalik universitet talabalari duch kelayotgan ruhiy salomatlik muammolarini tasvirlash uchun bu vaziyatda "epidemiya" va "inqiroz" kabi atamalardan foydalanadilar.

Statistik ma'lumotlar bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. 2018 va 2019-yillarda Amerika Kolleji Sog'liqni saqlash Assotsiatsiyasi (ACHA) talabalari so'roviga ko'ra, respondentlarning 60% ga yaqini "haddan tashqari" tashvishni boshdan kechirgan, 40% esa ular uchun ishlash qiyin bo'lgan darajada kuchli depressiyani boshdan kechirgan. Pensilvaniya shtati universitetining 2019-yilgi tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, talabalarni qabul qilish atigi 5 foizga oshgan davrda yotoqxonalaridagi ruhiy salomatlik xizmatlariga talab 30-40 foizga o'sgan.



Amerikadagi universitet talabalari duch keladigan umumiy ruhiy salomatlik muammolari, asosan, o'z joniga qasd qilish, ovqatlanish buzilishi, xulq-atvordagi og'ishlar va giyohvandlik kabi jiddiy muammolarni o'z ichiga oladi. Ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislar bunday muammolarni muhokama qilish muhimligini ta'kidlaydilar, Kerakli yordamni topish uchun ularga kuch, irodaviy sifatlar yetishmasligi sabab sifatida ko'rsatiladi.

Insonning o'z faoliyati va xulq-atvorini shaxsiy xohish-irodasiga bo'ysundirish, ro'yobga chiqarish, mustaqil fikrlashni barqarorlashtirish ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi. Talabalar irodasi avvalo ularning ijtimoiy faoliyatida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Yoshlarimizda irodaning bir qancha sifatleri ko'zga tashlanadi. Bular: qattiyatlilik, tashabbuskorlik, dadillik, mustaqillik, tejamkorlik, intizomlilik, tirishqoqlik, javobgarlilik, jasoratlilik, ishonch kabilar. Bugungi kunda yoshlarimizning bilim olishga ehtiyojining kuchayishi ulardagi aqliy salohiyati o'sishi ko'p jihatdan ularning irodaliy bo'lishini talab etadi. Chunki iroda tufayli inson biron-bir maqsad asosida ko'zlangan ishini, hatti-harakatlarini bajarishga intiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularni o'quv faoliyatlarida duch keladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bilimlarni egallashdagi sobitqadamlilik – bosh irodaviy sifat, hislat hisoblanib u irodaning boshqa ko'rinishlarining taraqqiyot darajasini va o'sishini aniqlovchi asosiy omil bo'lib sanaladi. Mustaqil va kelajagi buyuk davlat ideallariga sodiqlik, vatan oldidagi burchlik yuksak darajada anglash jamoatchilik xissi, yurt ravnaqiga o'z xissasini qo'shishi istagi - bularning barchasi o'zbek xalqiga xos bo'lgan sobitqadamlilik namunasi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi tashabbuskorlik talabaning o'z xoxishini amalga oshirish o'quvchida, mustaqil bilim olish va fikrlashdagi qattiyatlilik - talaba yoshlar tomonidan jiddiy qaror qabul qilish uni izchil xayotga tadbiiq etish xislati sanaladi. Tirishqoqlik talaba yoshlarning qiyinchiliklarni yengish uchun kurashida sir va izoh hujjat maqsadiga erishish uchun intilish ko'nikmasi hisoblanadi. Muammolarni yechish chog'ida chidamlilik shaxs tomonidan qabul qilinadigan qarorda, amalga oshirishi rejalashtirilgan vszifalarini bajarishida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, o'ziga ishonmaslik, mas'uliyatsizlik, qo'rquv faoliyatga xalal beruvchi, fikrni, hissiyot va hatti-harakatni turg'unlovchi (tormozlovchi) sifatlardir.



Matonatilik – qo‘ygan maqsad sari qat‘iy intilishda, xavf-xatarga mos shaklda o‘z pozitsiyasini tayin eta olishda, tushkunlikka tushmaslik, aksincha, o‘ziga ishonchni his qilishida namoyon bo‘ladi. Ishbilarmonlik – har qanday o‘rnatilgan ishni qiyinchiliklar va qarshiliklardan qat‘iy nazar omilkorlik qo‘llash tufayli oxiriga yetkazish xislatidir. Mustakillilik – o‘z e‘tiqodiga qat‘iy ishonch shaxsiy kuch quvvatiga ishonch, boshqalarning yordamiga muxtojlik sezmaslik kabi irodaviy sifatlardan xisoblanadi. Shaxsning xulq-atvorida, o‘quv faoliyatida agarda ta‘limiy mashg‘ulotlar oqilona, haqiqiy ravishda, to‘g‘ri uyushtirilsa insondagi bir qator irodaviy sifatlarda xam paydo bo‘ladi, bunda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti o‘qituvchilari, murabbiylariga yuklanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli uddalash uchun ular oliy o‘quv yurti talabalari va texnikum o‘quvchilariga muntazam ravishda topshiriqlar berib, ularni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi uchun o‘quvchilar masuliyat va sifatli (bajarilishi) hissini tarbiyalashlari lozim. Buning uchun o‘quvchilarga fanlar bo‘yicha uy topshiriqlari berish turli ko‘rgazmali qurollar, referat ishlarini ko‘rsatilgan muddatlarda qabul qilib olish va baholash talaba yoshlarda intizomlilik, qund, chidam kabi bir qator irodaviy sifatlarda shakllanishiga sabab bo‘ladi. Yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash ularni kelajagida yuksak aqliy saloxiyatli muxatassilar bo‘lishlari o‘z-o‘zini boshqarish va uddalashga o‘rgatish hozirgi zamon talabidir. Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo‘lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta‘minlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarish sifatida dastavval o‘ziga, o‘z hissiyotiga va xatti-harakatlariga shukronalik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlarini, sifatlari, hislatlari, illatlari to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo‘lib, ular abuliya (yunoncha abulia – qat‘iyatsizlik degan ma‘noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma‘nosini bildiradi) atamalari bilan ifodalanadi.

Rivojlanib borayotgan asrimizda shaxs komilligi, uning mavjud resurslaridan unumli foydalanib, o‘z sohasining professional mutaxassisiga aylanishi va shu orqali jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shishi har doimgidan ham muhim masalaga aylandi. “Uchinchi renessans” poydevorini yaratish, demokratik jamiyat qurish uchun bizga avvalo prezidentimiz aytganidek: “buyuk ajdodlarimizga xos azm-u shijoat,



xalqimizning metin irodasi kerak bo'ladi. Axborot hurujlari, turli xil siyosiy o'yinlarning avj olishi, shaxs ongini egallash uchun kurash kuchaygan bu davrda tashabbuskor islohotchi, strategik fikr yuritadigan, irodasi mustahkam yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирқосимова М. М. ТАЛАБАЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 478-481.
2. Мирқосимова М. М. МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА ЎҚУВ ФАНЛАРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Mirqosimova Miss M. AESTHETIC EDUCATION AND THE FORMATION OF A CULTURE OF READING AMONG YOUTH THROUGH WORKS OF ART //The Light of Islam. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 128-138.
4. Мирқосимова М. М. Социальная реабилитация детей с ограниченными возможностями здоровья //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 128-132.
5. Мирқосимова М. М. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ТОЛЕРАНТЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 4.
6. Назаров А. С. и др. Психологический анализ уровней принятия управленческих решений и факторов, влияющих на него //Молодой ученый. – 2020. – №. 21. – С. 739-740.
7. Nazarov A. S. RAHVAR FAOLIYATIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH TAMOIYLLARINI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. Special Issue 2. – С. 342-348.
8. Назаров А. РАХБАРНИНГ ШАХСИЙ КОМПЕТЕНТЛИ ОМИЛИНИНГ БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.



9. Mengboevich U. B., Sottarovich N. A. SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LEADER IN THE IMPLEMENTATION OF MANAGEMENT DECISIONS //Science Time. – 2021. – №. 10 (94). – С. 31-35.
10. Umarov B. M., Nazarov A. S. SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS AND MECHANISMS AFFECTING MANAGEMENT DECISION-MAKING IN THE ACTIVITIES OF THE HEAD //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 29 (том 1)(октябрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.10. 2021. – С. 91.
11. UMAROV B. M., NAZAROV A. S. PSYCHOLOGICAL MODELS OF BEHAVIOR OF MANAGERS IN THE PROCESS OF MAKING MANAGEMENT DECISIONS.
12. Nazarov A. S. DECISION MAKING AS A KEY PART OF MANAGEMENT ACTIVITY //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 33 (том 1)(февраль, 2022). Дата выхода в свет: 28.02. 2022. – С. 77.
13. Nazarov A. S. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MANAGEMENT DECISION-MAKING IN EMERGENCY SITUATIONS //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 34 (том 1)(март, 2022). Дата выхода в свет: 31.03. 2022. – С. 131.
14. Sottarovich N. A., Zilola K. PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR MAKING MANAGERIAL DECISIONS IN MANAGEMENT ACTIVITIES //Science Time. – 2022. – №. 2 (98). – С. 27-33.
15. Nazarov, Azamat Sottarovich. "RAHBAR FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISHNING DINIY VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI." Academic research in educational sciences Conference (2022): 130-134.
16. Назаров, А. С. "ОСНОВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ПРОЦЕСС ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В УПРАВЛЕНИИ." Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 36 (том 1)(май, 2022). Дата выхода в свет: 01.06. 2022.: 7.
17. Nazarov A. S. SCIENCE AND WORLD //SCIENCE. – 2021. – №. 6. – С. 72-73.



18. Sottarovich N. A. ETHNO-PSYCHOLOGICAL, AGE AND GENDER CHARACTERISTICS OF A LEADER IN MAKING MANAGEMENT DECISIONS //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 103-109.
19. Nazarov A. S. Psychological foundations of managerial decision-making //Молодой ученый. – 2021. – №. 3. – С. 46-48.
20. Назаров А. С. THE PSYCHOLOGY OF DECISION-MAKING STRATEGIES //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 1-7. – С. 79-82.
21. Назаров А. С. и др. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗРАБОТКИ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 2-9. – С. 31-35.
22. Назаров А. Scientific and methodological foundations of the influence of the social and psychological properties of the manager on managerial decisions //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 523-532.
23. Назаров А. Научно-методические основы влияния социальнопсихологических свойств руководителя на управленческие решения //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 523-532.
24. Назаров А. С., Митина О. В. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ //Наука и мир. – 2020. – №. 12-1. – С. 73-75.

